

UO'K-33

TURISTIK HUDUDLARDA MEHMONXONALARNING ARXITEKTURA MUHITINI MILLIY USLUBDA TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Xatamova Ozoda Olimovna

*Toshkent Arxitektura Qurilish universiteti 2-bosqich magistranti Tel:
+998908681626 xatamovaozoda779gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turistik hududlarda mehmonxonalarning arxitektura muhitini milliy uslubda tashkil etish tamoyillari mehmonxonalar xizmatlari, turlari, ular bo'yicha statistik ma'lumotlar, dam olish maskanlari va antiqa mehmonxonalar, Navoiy va Samarqand viloyatlarida turistlar tashrifi va mehmonxonalar statistikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, mehmonxona, tarixiy shaharlar, mehmonxona turlari. Mehmonxona, turistik xizmatlar, antiqa mehmonxonalar va ularning turlari.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о принципах организации архитектурной среды гостиниц в туристических зонах в национальном стиле, гостиничные услуги, типы, статистические данные по ним, зоны отдыха и старинные гостиницы, туристические посещения и статистика гостиниц в Навоийской и Самаркандской областях.*

Ключевые слова: *туризм, гостиница, исторические города, типы гостиниц. Гостиницы, туристические услуги, старинные гостиницы и их типы.*

Annotation: *This article presents information on the principles of organizing the architectural environment of hotels in tourist areas in the national style, hotel services, types, statistical data on them, recreation areas and old hotels, tourist visits and statistics of hotels in the Navoi and Samarkand regions.*

Key words: *tourism, hotel, historical cities, types of hotels. Hotels, tourist services, old hotels and their types.*

KIRISH

Qadimdan yuksak madaniyati va ilm-fani, me'moriy obidalari bilan ko'pchilikni hayratga solib kelgan yurtimiz istiqlol sharofati bilan zamonaviy sayyohlik markaziga aylandi. O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib oldi. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 – yil 14 - iyuldagi «Mehmonxona sohasiga qo'shimcha investitsiyalar jalb etish chora – tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 24- noyabrdagi «Mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari bu soha rivojida ulkan muvaffaqiyat sanaladi. Ushbu qarorlar asosida Respublikamiz hududida, shuningdek, viloyat va tumanlarda xalqaro toifadagi mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va

boshqa joylashtirish xizmatlari bo'yicha inshootlar qurilib o'z faoliyatini olib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan qadimiy me'morlik va san'at yodgorliklari bilan faxrlanadi. Mamlakatimiz hududida turli davr va sivilizatsiyasiga dahldor to'rt mingdan ortiq tariximiz na'munalari mavjud. Xivadagi Ichan-Qal'a majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlaridagi 209 ta me'moriy yodgorliklar YUNESKO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi.

Yangiligi. Hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mehmonxona infrastrukturasini yaxshilash, hamda turizmga normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston hududida mehmonlar va turistlarni joylashtirish vositalari amaliyotidan eng keng tarqalgan xizmat ko'rsatish obyektlari - mehmonxonalaridir. Funksional vazifasiga ko'ra, mehmonxonalar ishbilarmonlar uchun mehmonxonalar, dam olish uchun mehmonxonalar, mehmonxonalarning maxsus turlari kabi guruhlariga bo'linadi [1-4].

Sayyohlik marshrutlari ko'pincha yodgorliklarni piyoda sayr etishni o'z ichiga olgani sababli, tarixiy hududlarda joylashgan obyektlarga ko'pincha qulay ob-havo sharoitida talab yuqoridir.

Turizm bu - milliy iqtisodiyotga ko'p foyda keltiradigan sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda turistlar oqimining ko'payishi esa albatta, ularga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifat darajasi va reklamasi bilan baholanadi. Respublikamizda so'nggi yillarda mehmonxona va turistik xizmatlariga shu jumladan, mehmondo'stlik sanoatiga bo'lgan qiziqish oshib bormoqda.

Mehmonxona xizmatlari bu – turizm sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri. Barchamizga ma'lumki, turist xoriyga qanday maqsad bilan bormasin, birinchi navbatda o'zining xavfsiz joylashuviga ya'ni, mehmonxona va uning sharoitlariga katta e'tibor qaratadi. Shuni inobatga olib, mehmonxona biznesi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar kelayotgan turistlarni jalb qilish maqsadida juda qulay sharoitlarga ega, shu bilan birga g'aroyib va noodatiy mehmonxonalarni qurishga harakat qilishadi.[2]

Adabiyotlar tahlili. R.Xeyvigerstning nuqtayi nazari diqqatga sazovordir, unga ko'ra turistik hududlarda mehmonxonalarning arxitektura muhitini milliy uslubda tashkil etish tamoyillarini rivojlanishning asosiy vazifasi umuminsoniy qadriyatlar sohasida o'z taqdirini o'zi belgilash va o'z qadriyatlar tizimini rivojlantirishdir. Bir qator rivojlanish nazariyalarida muhim o'rin egallagan qadriyat yo'nalishlari tizimining bosqichma-bosqich shakllanishi individual rivojlanishning umumiy davriyligiga mos keladi. Shaxsning qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu ma'lum darajadagi intellektual rivojlanishdir. J.Piaje

axloqiy rivojlanish bosqichlaridagi o'zgarishlar umumiy kognitiv yoshga bog'liq o'zgarishlar bilan bog'liqligiga aniq ishongan.


Metodologiya va asosiy natijalar. 2022 - yilda Samarqandga 152 ta davlatdan 1,2 mln. nafar xorijiy va 4,2 mln. nafar mahalliy turistlar sayohatni amalga oshirgan bo'lib, bundan turistik xizmatlar eksporti 197,6 mln. dollarni tashkil etdi. Ma'lumotlarni quyidagi 1-jadval misolida ko'radigan bo'lsak, 2019 yilda mahalliy turistlar 2,5 mln. bo'lsa, xorijiy turistlar 560 mingni tashkil etgan.

1-jadval

Mahalliy va xorijiy turistlarning tashrifi (ming kishi)							
2019 - yil		2020 - yil		2021 - yil		2022 - yil	
mahalliy	xorijiy	mahalliy	xorijiy	mahalliy	xorijiy	mahalliy	xorijiy
2 560	560	581,2	52	1 943,4	119	4 247	1 204,2

Ushbu statistik ma'lumotlarni davom ettirib, joriy yilning birgina yanvar – mart oylarida 269 ming nafar xorijiy hamda 814 ming nafar mahalliy sayyohlar tashrifini aytish mumkin. Hozirgi kunda turistlarning Samarqandda o'rtacha qolish vaqti 2,7 kunni (1 kunlik harajati 65-250 AQSH dollar) tashkil etmoqda.

O'zbekiston hududida joylashgan mehmonxonalarining tipologiyasi, me'moriy uslublari, loyihalashtirish xususiyatlari va hududining ko'kalomzorlashtirish darajasi va landshaft dizayni juda ham turli tumandir (1-rasm).[8]



1-rasm. O'zbekiston hududida joylashgan mehmonxonalarining tipologiyasi.

Samarqandda joylashtirish vositalarining turlarini tasniflaganimizda asosan mehmonxonalarning soni va o'rinlari yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, hozirda faoliyat olib borayotgan mehmonxonalar 158 ta bo'lib, o'rinlar soni 11008

tani, xostellar soni 62 ta va o'rinlar soni 1608 tani, mehmon uylari soni esa 319 ta, o'rinlar soni 2978 tani aytish mumkin.

Shuni alohida aytish mumkinki, birgina 2022 - yilda 148 ta (nomerlar soni 3 504 ta, o'rinlar soni 9 219 ta) mehmonxona, hostel va mehmon uylari tashkil etildi.

Yanvar – mart oylarida esa 4 ta (258 ta o'rin) mehmonxona, 10 ta (253 ta o'rin) hostel va 11 ta (110 ta o'rin) oilaviy mehmon uylari foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari turistlarga xizmat ko'rsatish salohiyati ham tobora ortib borayotganligini 2- jadval misolida ko'rish mumkin.

2-jadval

Turistlarga xizmatlar ko'rsatish salohiyati							
Gid ekskursovod		Avtotransport vositalari		Axborot markazlari		Ovqatlanish joylari	
2022 y.	2023 y. bashorat	2022 y.	2023 y. bashorat	2022 y.	2023 y. bashorat	2022 y.	2023 y. bashorat
410 ta	470 ta	144 ta	174 ta	15 ta	18 ta	1109 ta	1500 ta

2 - jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022 - yilda 410 ta gid - ekskursovod, 144 ta avtotransport vositalari, 15 ta axborot markazlari va 1109 ta ovqatlantirish korxonalari turistlarga o'z xizmatlarini ko'rsatganligini bilishimiz mumkin.³¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 - yil 5-yanvardagi «Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish chora - tadbirlari to'g'risida»gi Qarori asosida investorlarga yangi turdagi mehmonxonalar qurish va uni jihozlash uchun subsidiya ajratish hamda qisman moliyalashtirish uchun davlat budjetidan mablag' ajratish to'g'risida Farmon berilgan. Ushbu farmondan kelib chiqib aytish joizki, turizm sohasida mehmonxona faoliyati ancha rivojlanib bormoqda.[5]

Hozirgi kunda O'zbekistonda turistlar oqimini yanada oshirish va ko'proq jalb qilish maqsadida barcha viloyatlarda va tumanlarda turli dam olish maskanlari, mehmon uylari, davolanish sanatoriyalari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda. Masalan, joriy yilda Prezidentimizning qarori asosida Navoiy viloyatining Nurota, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarida turizm salohiyatini o'rganish, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini bilish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Navoiy viloyatining dam olish maskanlariga 2021 - 2022 yillar davomida tashrif buyurgan turistlar oqimini quyidagi 3- jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkin.

3-jadval

Mahalliy va xorijiy turistlar tashrifi (ming kishi)				
Hududlar	Mahalliy		Xorijiy	
	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	522	992	900	26 201
Navoiy shahri	41	86	1 400	5 234
Karmana tumani	35	54	460	3 854

³¹ Samarqand viloyati Turizm va madaniy meros boshqarmasi ma'lumotlari

Xatirchi tumani	48	179	520	1 560
Nurota tumani	295	498	3 535	8 954
Qiziltepa tumani	42	58	465	1 920

Albatta, Navoiy viloyatida chet ellik turistlarning tomosha qilishga arzigulik diqqatga sazavor joylari va dam olishlari uchun yetarli sharoitga ega mehmon uylari, mehmonxonalari ancha ko'p. Shuningdek, Navoiy shahrining o'zida turistlarga ko'rsatiladigan barcha xizmat turlari, standart darajadagi 5 yulduzli, 4 yulduzli va 3 yulduzli mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari va boshqa xizmat turlari ham juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Viloyatda mehmonxonalarning umumiy soni 180 ta bo'lib, nomerlar soni 2458 tani va o'rinlar soni 5847 tani tashkil etadi. Bundan tashqari yaqin yillar ichida viloyatda 29 ta mehmonxona (nomerlar soni 1 253 ta, o'rinlar soni 2 678 ta), 91 ta mehmon uylari (nomerlar soni 292 ta, o'rinlar soni 859 ta), 32 ta hostellar (nomerlar soni 421 ta, o'rinlar soni 1052 ta) va 12 dan ortiq dam olish maskanlari (554 o'rinli) foydalanishga topshirilgan.

Navoiy viloyatining joylashtirish vositalari to'g'risidagi ma'lumot quyidagi 4-jadvalda keltirib o'tilgan.³²

4-jadval

Mehmonxonalar va ular joylashgan hududlar to'g'risida ma'lumot		
Hududlar	Mehmonxonalar soni	O'rinlar soni
Navoiy shahri	18 ta	1993
Nurota tumani	1 ta	50
Karmana tumani	4 ta	380
Zarafshon tumani	4 ta	200
Qiziltepa tumani	2 ta	55
Jami	29 ta	2 678

Shunday ekan, O'zbekiston turizmi deganda ko'z oldimizga faqat Samarqand, Buxoro, Xiva yoki Toshkentgina kelishi kerak emas, balki Navoiy, Jizzax, Sirdaryo va turistik marshrutlar tashkil qilinmagan hamda turpaketlar ishlab chiqilmagan hududlarda ham turizmni rivojlantirish, bu viloyatlarda ham turizm o'choqlarini tashkillashtirish mumkin.

Ammo, yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga va shunday imkoniyatlar yaratilganligiga qaramasdan, turistlarga yetarli darajada qulay shart - sharoitlar yaratish, xizmatlarini takomillashtirish, turistik obektlarining jozibadorligini yanada oshirish va reklamasini ko'paytirish darajasida yuqori o'rinlarda emas. Ikkinchidan, hududlarda turistlarni o'ziga jalb qiladigan antiqa turdagi mehmonxonalar mavjud emas. Ya'ni antiqa ko'rinishga ega, turistlarga o'zgacha xizmatlar ko'rsatadigan, ularni hayratda qoldiradigan noodatiy mehmonxonalarning mavjud emasligi joylashtirish vositalarida hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina ekanligini bilishimiz mumkin. Masalan, Angilyaning Veymous sohilida joylashgan «Qumli mehmonxona» dunyoda antiqaligi bilan turistlarni o'ziga jalb qilib keladi va bu

³² Navoiy viloyati Turizm va madaniy meros boshqarmasi ma'lumotlari

mehmonxona noodatiy mehmonxonalar reytingida dunyoda 1 - o'rinda turadi. Yana shunday Boliviyaning «Tuz hotel», Bavariyadagi daraxtlarga osilgan «Osma mehmonxonalar» va Chilidagi «Sehrlı tog'» kabi joylashtirish vositalari shunchaki tunashga emas, undan zavq olishga arzigulik mehmonxonalar bo'lib, O'zbekistonda ham ularni tashkil etish orqali turistlarning ayrim guruhlarini jalb qilishga erishish mumkin bo'ladi.

Poytaxtda va yirik shaharlarda sayyohlar uchun 4 va 5 yulduzli zamonaviy uslubdagi biznes otellar va yevropaning mashhur yirik mehmonxonalar tarmog'i Hilton, Radisson, Wyndham, Ramada, Hyatt, Intercontinental, Domina kabi mehmonxonalar tarmoqlari mavjud. Bunday yirik xorijiy kompaniyalar o'zlarining loyihalashtirish normalari va standartlariga ega. Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning har beshinchi mehmonxonasi yirik mehmonxona tarmog'iga tegishlidir. Arxitektura nuqtai nazaridan ushbu mehmonxonalar geometrik jihatdan to'g'ri shaklli tarxga ega ko'p qavatli bino bo'lib, asosan beton, marmar va shishadan foydalanilgan, elementlarning bir xil ritmda takrorlanishi va fasad ko'rinishining modulsimon bo'linganligi bilan e'tiborlidir.

Interyer dizayni ham zamonaviy uslubda bo'lib, ko'pincha xonaning bir detaliga, jihozlariga, dekorlariga milliy uslubdan foydalanadilar. Ular 4 va 5 yulduzli yuqori darajadagi qulayliklarga ega mehmonxonalar va keng ko'lamli xizmat turlarini taklif etadilar. Odatda bunday mehmonxonalar katta yashil hududga ega bo'lib, individual tarzda landshaft dizayni loyihalashtiriladi, hududi ma'lum funksional zonalarga ajratiladi: dam olish zonalari, yozgi hovuz, turli xil tadbirlar o'tkazish uchun bezatilgan maydonlar, restoranlar, terrasalar.

Mehmonxonaga kirish qismida mehmonxona ulug'vorligini ta'minlash uchun favvoralar, skulptura elementlari, gulzorlar, qimmatbaho daraxt turlaridan keng foydalanadi. Chunki bu ularning imidjini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi [5-6]. Bundan tashqari O'zbekistonda bir nechta mahalliy mehmonxonalar tarmog'i Asia, Sultan, Bek, Malika mavjud. Ular ham mehmonxona xizmatlari, shinamlik darajasi ko'rinishi bo'yicha o'ziga xos uslubga ega bo'lib, asosan 4* ga egadirlar [7-10].

Butik mehmonxonalar ham mintaqada mashhurlikka erishmoqda. 5 dan 50 kishigacha bo'lgan sig'imga ega bo'lgan ushbu turdagi mehmonxonalar hashamatli interyerlari va xizmat ko'rsatishning eng yuqori darajasi bilan farq qiladi. Bu esa yashash narxining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Avvalo, ular uslub va dizayn haqida qayg'uradilar. O'zbekiston tarixiy shaharlarida ham tarixiy uylarni mehmonxonaga aylantirib – o'ziga xos dizaynga ega bo'lgan meros mehmonxonalar (Buxoroda Minfiza, Komil) yoki yangi qurilgan o'ziga xos dizaynga va uslubga ega butik otellar (Darxon Toshkent, Sulton Samarqand) ko'pdir (1-rasm).

3 yulduzli mehmonxonalar eng keng tarqalgan mehmonxonalardir. Ular odatda xonalar soni 10 dan 30 gacha bo'lgan, kichik mehmonxonalardir. Tarixiy markazlar yaqinidagi shaharlarda joylashgan bunday mehmonxonalar, an'anaviy uslubdagi kam qavatli binolardir. Samarqanddagi Registon maydoni yaqinida ko'plab shunday

mehmonxonalar mavjud. Shahar Temuriylar davrida qurilgan me'moriy yodgorliklar va mahalla inshootlarini birlashtirib, shaharning milliy koloritini ta'kidlaydi. Mehmonxonalar arxitekturasida, uy- joy binolari qatorida joylashib, geometrik to'g'ri shakldagi asosan kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak tarxga ega, kam qavatli va ichki hovlisiga ega binodir. Ichki hovli landshaft dizayni unchalik ham rivojlanmagan yoki umuman bo'lmaydi. Ular madaniy yodgorliklarga piyoda yetib olish masofasida joylashib, ko'pincha fasad ko'rinishlari milliy naqshlar, interyer o'ymakorlik va mayolika bilan bezatilgan bo'ladi, terrasalar va binoning tom qismida tarixiy yodgorlikka qaragan ko'rish nuqtalari mavjud bo'ladi.

So'nggi yillarda turistik mehmonxonalarni bevosita me'morlik yodgorliklari – binolarda hamda tarixiy diqqatga sazovor joylarda tashkil etish va turistlarni qabul qilish keng tarqalmoqda. Bu maqsadda eski binolar, me'morlik ansambllari restavratsiya qilinmoqda, yangi funksional vazifasiga qarab ularning tarxini qisman o'zgartirish amalga oshirilmoqda. Bunday hollarda mehmonxonalar joylashtirish vositalari, o'ziga xos turistik xizmatlar ko'rsatish, shuningdek namoyish etish obyektlari funksiyalarini o'zida mujassamlashtiradi va ekzotik yo'sindagi turistik ehtiyojlar qondirilishini ta'minlaydi. Turistik faoliyatning mazkur turi muhim tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish imkonini beradi. Ko'pgina ana shunday tarixiy binolar madrasalar, karvonsaroylar, tarixiy hovli – joy binolarida qad rostlagan.

Xulosa va takliflar. Yaqin yillarda shaharlar, tumanlar, tog' bag'rlari, chekka qishloq joylarida ham faqat xalqaro toifadagi mehmonxonalar emas, balki aholi va turistlar uchun kichik turdagi dam olish maskanlari, sanatoriylar, antiqa va ajoyib ko'rinishga ega mehmon uylari qurilishi mumkin. Hududning imkoniyati va turistlarni qamrob olish nuqtai nazaridan biz antiqa ko'rinishdagi kichik tematik joylashtirish vositalarini qurilishini taklif qilamiz. Bu esa keladigan turistlarni jalb qilish maqsadida hududning jozibadorligini oshirish, infratuzilmasini yaxshilash, aholini turizm sohasiga ko'niktirish va shu orqali turizm tadbirkorligini hududlarda tashkil qilish, aholida dam olishga bo'lgan intilishini oshirishimiz mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mannopova N., Mannapov A. Influence of "Thematic Parks" to the development of tourism in Uzbekistan //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 696-704.
2. Akhunova N. K. K. Possibilities of using virtual reality technologies in education //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – T. 10. – №. 3. – C. 549-555.
3. Badirovna I. M. The specificities of creating and developing modern campuses. – 2021.
4. Tursunova, Sh F. "HISTORY OF ADVERTISING IN UZBEKISTAN." International Engineering Journal For Research & Development 5.9 (2022): 10-10.

5. Sultanova, Muhayyo. "Use of Cultural Plants in Desert Cities in Creating the Landscape of Recreation Zones in Uzbekistan." *International Journal on Orange Technologies*, vol. 2, no. 10, 20 Oct. 2020, pp. 102-104, doi: 10.31149 / ijot.v2i10.738.
6. Razikberdiev, M. I. (2022). Southern mesopotamia in the first half of the 3rd millennium bc. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(5), 211-216.
7. MANNAPOVA N. R. et al. Organization And Basic Requirements For Restaurant Design Interior // *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*. – 2022. – Т. 7. – №. 05. – С. 5-12.
8. Nazokatkhon A. INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO REDUCE CLIMATIC EFFECTS IN HOT AND DRY CLIMATIC TERRITORIES // *Архитектурада инновациялар журналы*. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. КАСЫМОВ О. С. МОСТ ДВУХ БЕРЕГОВ // *Поколение будущего: взгляд молодых ученых*. – 2021. – С. 34-37.
10. Saipova D. S. et al. Problems and Solutions in Studying the Modern Design of Museum Interiors // *JournalNX*. – С. 241-245.